



**Kredit shartnomasiga
qo`shilish to`g`risida umumiy shartlarga
1-ilova**

**Shaxsiy ma'lumotlarni qayta
ishlash va kredit hisobotini olish bo'yicha
birdek rozilik» (keyingi matnda – «Rozilik»**

¹Mazkur hujjatni imzolar ekan, Mijoz:

1. Mijoz ushbu bilan Bankka quyidagilarni taqdim etadi:

- Mijoz tomonidan tanlangan bank xizmatlarini ko'rsatishda uning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish, shuningdek ularni topshirish va uchinchi shaxslar tomonidan ularga ishlov berilishi ("Kredit-axborot tahliliy markazi" Kredit byurosi, "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DB, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi, O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi, Banklararo protsessing markazlari, uyali aloqa operatorlari va ma'lumot olish uchun Bank va davlat organlari sheriklarining boshqa integratsiyalashgan bazalari).

- mijozning shaxsga doir ma'lumotlari bo'yicha O'zbekiston banklarida ochilgan plastik kartalar mavjudligini qidirish, mijozning plastik kartalari bo'yicha tranzaksiyalar aylanmasini tushirish;

- Bank va uning sho'ba tashkilotlari (bundan buyon matnda "Tashkilotlar" deb yuritiladi) tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish va unga ishlov berish huquqi, shu jumladan:

- ✓ familiyasi, ismi, otasining ismini (agar mavjud bo'lsa);
- ✓ tug'ilgan yili, oyi, sanasi va joyi, fuqaroligini;
- ✓ shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarning ma'lumotlarini;
- ✓ biometrik ma'lumotlarni;
- ✓ yashash joyi, yuridik manzili (ro'yxatdan o'tgan joy), ish joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- ✓ pochta va elektron pochta manzili, telefon raqamlarini;
- ✓ fotografik tasvirlar va video tasvirlarni;
- ✓ ma'lumoti, kasbi haqida ma'lumotni;
- ✓ oilaviy ahvol va oila tarkibi to'g'risida ma'lumotni;
- ✓ mulkiy holati, daromadlari, kredit tarixi va qarzdorligi to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- ✓ bank, sug'urta, soliq sirini, shaxsga doir tibbiy ma'lumotlarini, shuningdek qonun bilan qo'riqlanadigan sirning boshqa turlarini tashkil etuvchi ma'lumotlarni;
- ✓ boshqa har qanday shaxsga doir ma'lumotlarni;

✓ Bank va (yoki) Tashkilotlar tomonidan bank va boshqa xizmatlarni ko'rsatish, Bank va (yoki) Tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish, shuningdek shartnomalarni bajarish, Respublika ma'lumotlar bazalaridan axborot olish maqsadida, shuningdek O'zR qonunchiligiga va (yoki) Bank va (yoki) Tashkilotlarning ichki hujjatlariga muvofiq mening shaxsga doir ma'lumotlarimni yig'ish, unga ishlov berish zarurati vujudga kelsa, shu jumladan quyidagilar bilan bog'liq: xabarnomalar va talablarni yuborish bilan; xabardor qilish, shu jumladan, Bank va (yoki) Tashkilotlarning xizmatlari to'g'risida; ma'lumot va axborotlarni so'rash va olish; qarzdorlikni mustaqil ravishda va uchinchi shaxslarni jalb qilgan holda undirish; talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqlari, qarzni o'tkazishni; Bank va (yoki) Tashkilotlarning huquqlari va manfaatlarini suddan tashqari va sud orqali himoya qilish, sud va boshqa hujjatlarni ijro etish uchun murojaat qilish; davlat organlariga va boshqa shaxslarga (shu jumladan, talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqlarini sotib oluvchilarga yoki qarzdorlikni undirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchilarga) shaxsga doir ma'lumotlarni taqdim etish, shaxsiy ma'lumotlarimni Bank va Tashkilotlar o'rtasida almashish.

✓ Shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov berishga rozilik O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq shaxsga doir ma'lumotlarni saqlash muddati davomida amal qiladi. Shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish va ularga ishlov berish Bank va Tashkilotlar tomonidan O'zR qonunchiligiga zid bo'lmagan usullar bilan amalga oshiriladi. Shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish va unga ishlov berishga rozilik quyidagi imkoniyatlarni o'z ichiga oladi:

✓ Bank va Tashkilotlar tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarni har qanday uchinchi shaxslarga topshirish;

✓ Bank va Tashkilotlar tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish jarayonida

transchegaraviy uzatishni amalga oshirish

✓ Bank va Tashkilotlar tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarni hamma foydalanishi mumkin manbalarda tarqatilishi;

- Bank tomonidan Davlat va nodavlat ma'lumotlar bazalaridan (bundan buyon matnda "DMB" deb yuritiladi) Sub'yekt to'g'risidagi, shu jumladan kelajakda DMBga kelib tushadigan axborotlarni olish huquqi:

- ✓ kredit byurosi tomonidan, DMBda joylashgan (mavjud bo'lgan va kelajakda DMBga kelib tushadigan) mijoz haqidagi axborotlarni Bankka taqdim etish uchun;
- ✓ kredit byurosi tomonidan DMB operatorlari/egalik qiluvchilaridan (mavjud bo'lgan va kelajakda DMBga kelib tushadigan) kelib tushadigan mijoz haqidagi axborotlarni olish uchun;
- ✓ DMB egalik qiluvchilari tomonidan kredit byurosiga bevosita yoki uchinchi shaxslar orqali mijoz haqidagi axborotni berish uchun;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxsga Sub'yekt to'g'risidagi axborotni kredit byurosiga va kredit byurosi (mavjud bo'lgan va kelajakda kelib tushadigan) orqali Bankka taqdim etish.
- ✓ Bankning mobil ilovasidan foydalangan holda suratga olishni amalga oshirish va qarz oluvchining suratidan Bankning ichki normativ hujjatlariga muvofiq keyinchalik foydalanish uchun;

✓ kredit skoringini o'tkazish uchun, buning uchun Bank barcha qonuniy manbalardan u to'g'risida maxfiy ma'lumotlarni (shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlarni) olishi va ko'rsatilgan ma'lumotlarning Bank tomonidan tarqatilishi;

2. Bank tomonidan kredit olish shartlari taqdim etilgan taqdirda va Bank tomonidan Mijozning kredit arizasi ma'qullanganligi olingandan boshlab 12 soat ichida tegishli shartnomalar (kredit shartnomasiga qo'shilish to'g'risidagi Umumiy shartlarga aktsept qabul qilinmaganda va hokazo) imzolanmagan taqdirda, ushbu fakt so'ralgan kreditni olishdan voz kechganligini Mijoz tasdiqlaydi/o'zining roziligini beradi.

3. Mijozning kreditga layoqatliligi va boshqa ma'lumotlarini baholash amalga oshiriladigan Bankning skoring modeli tijorat siri va maxfiy deb hisoblanishiga va Bank Mijozga quyidagi hollarda Mikpokredit berishni, hech qanday sabablarni ko'rsatmasdan rad etishga haqli ekanligiga rozi:

- Mijoz va u tomondan taqdim etilgan ma'lumotlar tahlilining barcha tegishli bosqichlarini muvaffaqiyatli o'tmaganda va/yoki;
- muammoli kreditlar, ular bo'yicha joriy muddati o'tgan qarzдорliklar mavjud bo'lganda;
- Mikrokredit olishning maqsadi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va/yoki terrorizمنى moliyalashtirish va/yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish ekanligiga shubhalar mavjud bo'lsa;
- Bank tomonidan taqdim etiladigan mablag'lar qarz oluvchi tomonidan sanksiyalar va/yoki eksport-import cheklovlarini chetlab o'tish maqsadida foydalanilishiga shubha mavjud bo'lgan taqdirda;
- Kredit arizasi shartlarining /ariza beruvchining Bank kredit siyosati/tavakkalchilik strategiyasi talablariga nomuvofiqligi bilan bog'liq boshqa holatlar;
- amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa holatlar.

4. Mijoz Bank tomonidan davlat va nodavlat ma'lumotlar bazalaridan (bundan buyon matnda "DMB" deb yuritiladi) Mijoz to'g'risidagi, shu jumladan kelajakda DMBga kelib tushadigan axborotlarni olishga rozi:

- kredit byurosi tomonidan, DMBda joylashgan (mavjud bo'lgan va kelajakda DMBga kelib tushadigan) mijoz haqidagi axborotlarni Bankka taqdim etish uchun;
 - kredit byurosi tomonidan DMB operatorlari/egalik qiluvchilaridan (mavjud bo'lgan va kelajakda DMBga kelib tushadigan) kelib tushadigan mijoz haqidagi axborotlarni olish uchun;
 - DMB egalik qiluvchilari tomonidan kredit byurosiga bevosita yoki uchinchi shaxslar orqali mijoz haqidagi axborotni berish uchun;
 - O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxsga Sub'yekt to'g'risidagi axborotni kredit byurosiga va kredit byurosi (mavjud bo'lgan va kelajakda kelib tushadigan) orqali Bankka taqdim etish
5. Mijoz davlat ma'lumotlar bazalari va Mijoz tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarning

ishonchliligi uchun Bank javobgar emasligiga rozi.

6. Mijoz Bankka taqdim etilgan ma'lumotlar uchun to'liq javobgar ekanligiga rozi.

7. Shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ishga, ularga ishlov berishga rozilik O'zbekiston Respublikasi qonunchilik talablariga muvofiq shaxsga doir ma'lumotlarni saqlash muddati davomida amal qiladi. Shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish va ularga ishlov berish Bank va Tashkilotlar tomonidan O'zR qonunchiligiga zid bo'lmagan usullar bilan amalga oshiriladi. Shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish va ishlov berishga rozilik quyidagi imkoniyatlarni o'z ichiga oladi:

- Bank va Tashkilotlar tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarni har qanday uchinchi shaxslarga topshirish;
- Bank va Tashkilotlar tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish jarayonida transchegaraviy uzatishni amalga oshirish;
- Bank va Tashkilotlar tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarning hamma foydalanishi mumkin bo'lgan manbalarda tarqatilishi